



HAQIQIY BO'LMAGAN VA TUZILMAGAN BITIMLAR

Sh. Sh. Muhammadjonov

Farg'ona davlat universiteti Huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Annotatstiya:

Maqolada bitimning haqiqiy emasligi, tuzilmagan bitim va uning asosiy belgilari tahlil etiladi. Shuningdek, bitimning haqiqiy emasligiga nisbatan ilmiy adabiyotlardagi huquqshunos olimlarning ushbu yo'nalishdagi fikr- mulohazalari ilmiy -nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik huquqi, bitim, bitimning haqiqiy emasligi, o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitim, huquqbuzarlik, huquqtartibot, huquqqa xilof, nizoli bitimlar.

Amaldagi Fuqarolik kodeksida o'zining yechimini topmagan ko'plab masalalar qatorida bitimning haqiqiy emasligi masalalarini ilmiy kontseptual jihatdan chuqur tahlil etishni taqozo etadi.

Bitim fuqarolik huquqi tizimida markaziy institutlardan biridir. Bitim fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlardir. Har qanday bitim tomonlarning hohish-istagiga yo'naltirilgan yuridik ta'sirga erishishga qaratilgan. Istalgan fuqarolik-huquqiy natijalar yuzaga kelmagan taqdirda, bitim haqiqiy emas deb hisoblanadi.

V.P. Shaxmatov fikricha, bitimning haqiqiy emasligi uning tarkibi ijtimoiy zararli yoki ijtimoiy nomaqbul xususiyatlar 86 tufayli huquq normalarida tavsiflangan ushbu turdagi bitimlar tarkibining xususiyatlariga mos kelmaydi. D.O. Tuzov bitimning haqiqiy emasligini huquqbuzarlik emas deb ta'kidlaydi va agar sub'ekt aybdor bo'lsa va o'z harakatlarining huquqqa xilofligini bilsagina huquqbuzarlik hisoblanadi.

O.V. Gutnikov bitimlarning haqiqiy emasligi bitim tuzish vaqtida mavjud bo'lgan asoslar bo'yicha ma'lum darajada rad etishini tushunadi. V.G. Golyshev fikricha, bitimni haqiqiy emasligi fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini o'rnatishga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlari sifatida belgilaydi. N.V. Rabinovichni ta'kidlashicha, bitimning haqiqiy



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

emaligi o'z mazmuni, shakli va yo'nalishi bo'yicha bitimdir. Shu bilan birga, u qonun normasini, o'rnatilgan huquq-tartibotni buzgani uchun huquqbuzarlik hisoblanadi.

V.A. Demidyuk bitimni haqiqiy emasligini qonunni buzishga qaratilgan huquqqa xilof harakat sifatida baholaydi. H.R. Rahmonqulov, D.O. Tuzov, V.G. Golishev, V.A. Demidyuklarning bitimning haqiqiy emasligi bo'yicha bildirilgan nazariy fikrlari muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

I.S. Pereterskiyning fikricha, o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitim haqiqiy emas bo'lganda, harakat bitim shakliga ega bo'ladi, lekin u qonunga zid yoki chetlab o'tishga qaratiladi.

M.A. Rojkova o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimni huquqbuzarlik deb tan olishdan bosh tortib, uni bitim sifatida qaralmasligi kerak deb ta'kidlaydi, chunki bu mavjud o'rnatilgan tartibga zid tuzilgan bitim sifatida o'xshash harakat deb hisoblaydi.

Huquqiy adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, bitimning haqiqiy emasligi to'g'rsida turli xil yondashuvlar mavjuddir. Jumladan, G.F. Shershenevich bitimning haqiqiy emasligini ikki turga ajratadi: 1) mutlaq haqiqiy emas yoki bitim qonunchilik talablariga muvofiq hech qanday huquqiy oqibatlarga olib kelmasa, o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topiladi; 2) nisbiy bitimning haqiqiy emasligi yoki uni rad etilishi bitimni o'z-o'zidan haqiqiy yuridik oqibatlardan mahrum qilmaydi, balki faqat manfaatdor shaxsning e'tirozi yoki da'vosi bilan bunday natijaga olib keladi.

Huquqshunos olimlar bitimning haqiqiy emasligining huquqiy mohiyatini tahlil qilishda, bitimni haqiqiyli va haqiqiy emasligini huquqiy tabiatini ikkita farqlovchi belgilarga ajratiladi: – harakatlarning qonuniyligi (noqonuniyligi); – ular yo'naltirilgan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishga qarab.

Tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish shartlari qonunchilik bilan tartibga solingan. Ular jumlasiga:

qonunchilik bilan ko'zda tutilgan shaklga rioya qilmaslik;

mazmunning qonunchilikka nomuvofiqligi;

bitim tuzayotgan jismoniy va yuridik shaxslarning unda ishtirok etishga qobiliyatsizligi;

bitim ishtirokchilarining xohish va irodalarining nomuvofiqligi.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bitimlar bilan bog'liq fuqarolik huquqiy munosabatlarga oid ishlarning echimi har xil va turlicha bo'lishi aniqlanmoqda. Fuqarolik sudlarida haqiqiy bo'lmagan bitim va tuzilmagan bitim o'rtasidagi farqlar, shuningdek, ularni qo'llashga nisbatan yagona va aniq yondashuv mavjud emas. Bu esa sud amaliyotining turli xil usullar va yondashuvlar asosida rivojlanganini ko'rsatadi, natijada sud amaliyotida bevosita qarashlar o'rtasida ba'zi bir tafovutlar paydo bo'lishiga olib kelgan.

Haqiqiy bo'lmagan bitim bilan tuzilmagan bitim o'rtasidagi farqlarni tahlil qilinar ekan qiziq bir dilemma mavjud-ki, qonunda tuzilmagan bitim bilan haqiqiy bo'lmagan bitim parallel ravishda kelganligini ham ko'rish mumkin.

Fuqarolik kodeksining 366-moddasi 2-qismi (FKning 185-moddasi 2-qismi)ga ko'ra, notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro'yxatdan o'tkazilishi zarur bo'lganda esa — shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi deb ko'rsatilgan.

Fuqarolik kodeksining 112-moddasi 1-qismiga ko'ra, bitimning notarial shakliga yoki uni davlat ro'yxatidan o'tkazish talabiga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Bunday bitim o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi deb ko'rsatilgan.

Shu joyida o'rinli savol tug'iladi. Bitim (shartnoma) ro'yxatdan o'tkazilmagan bo'lsa Fuqarolik kodeksining 366-moddasi bo'yicha tuzilmagan bitim hisoblanadimi yoki Fuqarolik kodeksining 112-moddasi bo'yicha haqiqiy bo'lmagan bitim hisoblanadimi? Juda qiziq savol-da. Agar haqiqiy bo'lmagan bitim deb hisoblasak oqibatlari yuzasidan Fuqarolik kodeksining 114-moddasi qo'llaniladi. Agar tuzilmagan bitim deb hisoblasak oqibatlari yuzasidan Fuqarolik kodeksining 1023-moddasi qo'llaniladi. Qiziq dilemma!

Shuning uchun ham, ushbu institut (tuzilmagan bitim)ning huquqiy tabiati va amaliyotdagi ahamiyatini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini anglatadi.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fuqarolik kodeksi.
2. Shershenevich G.F. Uchebnik russkogo grajdanskogo prava. T. 1 / nauch. red.: Em V.S. M.: Statut, 2005. 461 s
3. Rahmonqulov H. Bitimlar. O'quv qo'llanma. – T.: TDYuI nashryoti, 2010. 176 bet.
4. Shaxmatov V.P. Sostavi protivopravnix sdelok i obuslovlennye imi posledstviya / pod. red. V.A.Nosova. Tomsk.:izd. tomskogo universiteta. 1967. S.164.
5. Tuzov D.O. Teoriya nedeystvitelnosti sdelok. Opit rossiyskogo prava v kontekste evropeyskoy pravovoy tradisii / D.O.Tuzov, M.: Statut, 2007. S. 9-13.
6. Gutnikov O.V. Nedeystvitelnie sdelki v grajdanskom prave (teoriya i praktika osparivaniya). M., 2008. S. 65
7. Golishev V.G. Sdelki v kreditnoy sfere i ix nedeystvitelnost: avtoref. ... kand. yurid. nauk. M., 2003. S. 112
8. Rabinovich N.V. Nedeystvitelnost sdelok i ee posledstviya. L., 1960. S. 11–12.
9. Demidyuk V.A. Analiz pravovoy prirodi nedeystvitelnix sdelok // Vestnik Kostromskogo gosudarstvennogo universiteta im. N.A. Nekrasova. 2016. № 1. T. 22. S. 203-205
10. Tuzov D.O. Nichtojnost i osporimost yuridicheskoy sdelki. Pandektnoe uchenie i sovremennoe pravo. M., – 2006. – 204 s.